


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura  
mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent – 2024



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «01» 08 dagi 277- sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>10</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>12</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya – "Gumanitar fanlar" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, oliy ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash va professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, muzey va ilmiy muzeylarda, pedagogik ilmiy-uslubiy faoliyat, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni o'rganish va qo'riqlash muassasalar bo'linmalarida, ma'naviyat va ma'rifat markazlari, tarmoq universitetlari, malaka oshirish institutlari, turizm, millatlararo munosabatlar va etnik nizolarni oldini olish, prognoz qilish, millatlararo bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi tuzilmalar faoliyat ko'lamini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari;  
davlat va mahalliy boshqaruv organlari, siyosiy tarix va ijtimoiy boshqaruv organlari;

moddiy va ma'naviy yodgorliklarni o'rganish va qo'riqlash muassasalari;

muzey va ilmiy muzeylar;

ma'naviyat va ma'rifat markazlari;

turizm tashkilotlari

iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi ilmiy texnikaviy muassasalar, assotsiyalar, korporatsiyalar, xususiy firma va kompaniyalar, ishlab chiqarish birlashmalari;

etnografiya, etnologiya va antropologiya tadqiqot usullari sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, xulosa va amaliy natijalarni modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va hodisalar, mikro va makro ijtimoiy makonda tarixiylik ko'rsatkichlarining tahliliy jarayonlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari**

*ilmiy tadqiqot faoliyati;*

*pedagogik faoliyati;*

*huquq-tartibot;*

*tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

*ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;*

*axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70220601 - *Etnografiya, etnologiya va antropologiya* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

mamlakatimiz va chet ellarda hosil qilingan ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o'rganish;

etnologik va antropologik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ularning natijalarini ilmiy tahlil qilish;

etnografiya, etnologiya va antropologiya sohasida zamonaviy fan texnologiyalarini joriy etish va ularni o'quv jarayoniga joriy etish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzishi qobiliyatiga ega bo'lish.

**Pedagogik faoliyatida:**

o'qitish metodikasini egallash;

oliy ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash va professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

**Huquq-tartibot faoliyatida:**

qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashda jamiyat, davlat va shaxs hamda ilmiy-texnikaviy faoliyat subyektlarining tarixiy tadqiqotlari va ma'naviy-mulkiy merosini qadriyatlarni va uni himoya qilish;

manbaviy va tarixiy-etnografik hujjatlarning huquqiy maqomi va qonuniyligini ta'minlash, bular borasidagi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;

etnologik tadqiqot usullari hamda manbaviy asoslarga zarar yetkazuvchi vaziyatlarni va tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

siyosiy ong nuqtai nazaridan millatlararo nizolarni oldini olish va barvaqt

prognoz qilish, milliy-etnik munosabatlarga oid analitik(tahliliy) ma'lumotlar tayyorlash va uni ekspertiza qilish, etnografik-manbaviy ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on va noto'g'ri tadqiqotlarni olib borishga qaratilgan maqsadli ilmiy jinoyatlar va qonunbuzarliklarni aniqlash va ochish, profilaktika qilish, ogohlantirish va qat'iy choralar ko'rish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

ijrochilar va ilmiy tadqiqot jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

turizm sohasiga doir zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo'yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo'llay olish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

etnoekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

**Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati:**

turizm yo'nalishi bo'yicha tur-firmalarda ekspert-konsultant, gidlarni tayyorlash va o'qitish, tadqiq qilingan ob'ektlar kataloglari, tur-paketlar va boshqa turizm brendi mahsulotlarini hamda maxsus yo'l ko'rsatkichlarini yaratish;

etnologik va antropologik manbalarni yaratish va nashr etish;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ularning ta'sirini sifat va miqdor, etnologik va antropologik jihatdan tahlil qilish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumot va hisobot tayyorlash;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**2.Kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit

tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqni aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirilgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun me'yoriy ish hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

ilmiy-tadqiqot metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarning bir-biridan farqini bilishi;



millatlararo munosabatlar, milliy an'analar va urf-odatlarini tadqiq etish, etnosotsiologik so'rovnomalar o'tkazishni tadqiq etish, an'anaviy xo'jalik va undagi transformatsion jarayonlarni tadqiq etish, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot va oilaviy marosimlarni chuqur tahlil etishni, dala hujjatlarini to'ldirish va ularni saqlash, qayta ishlash kabi etnografiya, etnologiya, etnosotsiologiyaning sohalari bo'yicha so'rov anketalarini tuzish, dala tadqiqotlarni o'tkazish va ularni elektron hisoblash texnikasi ko'magida mujassamlash va tahlil etish;

etnologik ashyolar, etnologik dala tadqiqot ishlarini olib borishning zamonaviy usullari, dala tadqiqotlarida respondentlar bilan ishlashning zamonaviy usullari, etnoslararo jarayonlarning tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayon bilan aloqadorligi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida etnografiya, etnologiya va antropologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):**

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	1080	36	
1.01	ILTM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFOM1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	TRM1106	Tarixiy rekonstruksiya masalalari	180	6	1
1.04	PSD1106	Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi	180	6	1
1.05	MA1206	Madaniy antropologiya	180	6	2
1.06	XMET1206	Xorijiy mamlakatlar etnologiyasi tarixi	180	6	2
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	720	24	2,3
		<b>Jami</b>	1800	60	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	Antropolog-etnolog, pedagog-tadqiqotchi			
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	1800	60	
3.01		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
3.02		Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish	1200	40	1,2,3,4
		<b>HAMMASI</b>	3600	120	

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002:651.1/7

Guruh

OKS

---

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ilmiy-tadqiqot, etnologiya, etnografiya, antropologiya, etnos, paradigma, etnoiqtisodiyot, evolyutsionizm, neoevolyusionizm, freydizm, funksionalizm, diffuzionizm, inkulturatsiya, akkulturatsiya, poliginiya, poliandriya, sotsializatsiya, madaniy o'zlik, modernizatsiya, gender konsepsiyasi, neofreydizm, madaniy relyativizm, globallashuv, primatlar, antropogonez, etnos, modernizatsiya, absolyutizm, tendensiya, ilmiy tadqiqot muassasalari va tarmoqlari, ilmiy-texnikaviy sohalar, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, manbaviy tahlil, tarixiylik, aniqlilik, xolislik printsiplari, ilmiy qonunbuzarlik, ilmiy ishlab chiqarish, ilmiy loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy xorijiy ilg'or tajribalar, ilmiy tadqiqot markazlari, tadqiqot usullarini tashkil qilish, samarali foydalanish, virtual va elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy universiteti

Rektor  I. Madjidov



2024-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



O'zbekiston Respublikasi Madaniyat  
va turizm vazirligi huzuridagi  
Millatlararo munosabatlar va xorijiy  
mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari  
qo'mitasi

Rais  R. Qurbanov

2024-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

M.O'.



O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Rektor  U. G'afurov

2024-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti

Rektor  G. Rixsiyeva

2024-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
60220600 – Antropologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishi hamda uning negizidagi 70220601  
– Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligining malaka talablari  
va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar  
iste'molchilari o'rtasida

### KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” \_\_\_\_\_ 2024-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori G'afurov Uyg'un To'liqinovich, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna, O'zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.U.Madjidov bilan birgalikda O'zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60220600 – Antropologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishi hamda uning negizidagi 70220601 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2019-yil 17-iyundagi “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-son, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi «Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-279-son qarori, 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 O'quv yili uchun Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston xalqaro  
islom akademiyasi rektori

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti rektori

O'zbekiston Milliy universiteti rektori



G'afurov

G. Rixsiyeva

I.U.Madjidov

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab  
chiqilgan 60220600 – Antropologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishi va  
70220601-Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligi  
bo'yicha malaka talabi va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar antropologiya va etnologiya sohasiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib bormoqda. Shubhasiz, bugungi qilinayotgan ishlar kelajakda yurtimizda etnologiyaning mustaqil fan sohasi sifatida rivojlanishiga muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Etnologiya va antropologiya juda keng yo'nalishlarni o'ziga kamrab olgan fan tarmog'i bo'lib, u turli insonlarni turli qirralarini o'rganadi. Xususan, aynan shu bois ham mazkur fanda zamonaviy jamiyatlar madaniy, lingvistik, sotsial, diniy, siyosiy, siyosiy, iqtisodiy tomondan tadqiq qiladi. Shu bois ham aynan antropologiya fanigina jamiyatga tadqiqotchi nuqtai nazaridan emas, balki aynan ushbu jamoa a'zosi tarzida baholash imkonini beradi. Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, bu fan tarix yo'nalishidagi fan emas, shu bois yaqin kelajakda uni tarix fanlaridan chiqarilsa va boshqa qator mamlakatlarda bo'lgani kabi antropologiyani alohida fan yo'nalishi sifatida tashkil etish bu sohada maxsus ilmiy markazlar, institutlar tashkil etish bizning asosiy maqsadimiz bo'lishi kerak.

O'zMU tomonidan taqdim etilgan dars soatlarida umuman olganda antropologiya va etnologiyaga oid fanlar qamrab olishga harakat qilingan. Shunga qarmasdan bu borada bizning quyidagi takliflarimiz bor:

“Antropologiya va etnologiya” yo'nalishida o'qitiladigan darslar ro'yxatiga lingvistika, din antropologiyasi, iqtisodiy va siyosiy antropologiya fanlarini kiritish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, ishchi guruh a'zolari tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari uchun kadr iste'molchilari talablari va xorijiy tajribalar asosida malaka talabi va o'quv reja ishlab chiqilgan.

70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab  
chiqilgan 60220600 – Antropologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishi va  
70220601-Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligi  
bo'yicha malaka talabi va o'quv rejasiga

**TAQRIZ**

Ma'lumki, globallashuv davrida jahonda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar antropologiya va etnologiya sohasiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib bormoqda. Bugungi kunda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, kelajakda antropologiya va etnologiya yo'nalishining alohida fan sohasi sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Antropologiya va etnologiya yo'nalishi o'zida juda keng tarmoqni jam qilgan bo'lib, antropologiya insonning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa xususiyatlarini o'rganilsa, etnologiyada elat, xalq va millatga xos xususiyatlarini fanning zamonaviy metodlari orqali tadqiq etishadi. Bu tadqiqotlar natijasida insonlarni o'ziga xos xususiyatlari alohida yo'nalishlar kesimida tadqiq etilgan bo'lsa, etnologik tadqiqotlar natijasida xalqlarning etnik tarkibi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyatidagi etnolokal xususiyatlari yoritib berish imkoni oshmoqda. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, ushbu yo'nalishlar inson va xalqni tarixiy nuqtai nazardan emas, balki o'zining fan sohasi doirasida tadqiq etishar ekan. Bu esa antropologiya va etnologiya yo'nalishi tarix fanining yordamchi sohasi emas, alohida fan tarmog'i sifatida rivojlantirilsa, xalq va jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy hodisa bo'ladi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan taqdim etilgan dars soatlarida umumiy holatda antropologiya va etnologiyaga oid fanlar qamrab olishga harakat qilingan. Bu borada bizning quyidagi takliflarimiz mavjud:

“Antropologiya va etnologiya” yo'nalishida o'qitiladigan darslar ro'yxatiga migratsiya etnologiyasi, jismoniy antropologiya, tibbiyot antropologiyasi fanlarini kiritish tavsiya etiladi.

Qisqacha qilib aytganda, ishchi guruh a'zolari tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari uchun kadr istemolchilari talablari va xorijiy tajribalar asosida malaka talabi va o'quv reja ishlab chiqilgan.


Ishlab chiqilgan malaka talabida Antropologiya va etnologiya sohasi mohiyati, kasbiy soha obyektlari, turlari, maqsad va vazifalari, umumiy va kasbiy kompetensiyalar, fanlar va amaliyot jarayonlari, kvalifikatsiya, bibliografik ma'lumotlar va boshqa qismlarni o'z ichiga olgan. Ushbu qismlar yurtimiz va xorijdagi malakali kadrlar tayyorlashga qo'yilgan talablar asosida tuzib chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, taklif etilayotgan malaka talablari va o'quv rejasida etnografiya, etnologiya va antropologiya sohasidagi hozirgi tendensiyalar va

70220601 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya muammolar hisobga olingan. Unda madaniy diversifikatsiya, globallashuv va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi dolzarb masalalarga e'tibor qaratadi.

60220600-Antropologiya va etnologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 70220601-Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligi uchun ishlab chiqilgan malaka talabi va o'quv rejalarni ma'qullayman hamda tasdiqlash uchun tavsiya etaman.

O'zbekiston Milliy universiteti  
Tarix fakulteti professori, DSc



A. Yermetov

*E. Yermetov A.*  
tasdiqlayman:  
O'z MU KB katta inspektori  
22 06 2024 yil

